

TA’LIM MUASSASALARIDA PSIXOLOGIK XIZMAT FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

O.I. Yadgarova

*SamDChTI, Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat
kafedrası dotsenti*

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada oliy ta’limda tahsil olayotgan talabalarga psixologik xizmat faoliyatini samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zi: talaba yoshlar, oliy ta’lim, psixologik xizmat, psixoprofilaktika, psixologik trening mashg‘ulotlari, amaliy yordam

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda talaba yoshlar uchun ta’lim olish, kasbiy rivojlanishi uchun ham imkoniyatlar kengaytirilib borilmoqda. Talaba yoshlar oliy ta’lim yo‘nalishlarida startap loyihalarda ishtirok etish, xorijda o‘qishga grantlar, stajirovkalar hamda IT sohasida o‘z bilimlarini kuchaytirib kelmoqda. Shu boisdan Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarga barchamizning ishonchimiz ortib, ulardan juda ko‘p boshqa faollikni talab qilamiz. Bugungi talaba yoshlar psixologiyasi juda dinamik, axborotlar oqimi kuchaygan bir davrda yashamoqda. Talaba yoshlarimiz raqamlashgan, tezkor, yuqori stress va kreativ muhitda o‘smoqda. Shuning uchun talaba yoshning psixologiyasi oldingi avlodlardan ancha farq qiladi.

Bugungi kunda Oliy ta’lim muassasalarida yoshlarning psixologik holati diagnostikasiga ixtisoslashgan psixolog kadrlar hamda tashkilotlar mavjud bo‘lsada, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishni amalga oshiradigan yagona tuzilmaning mavjud emasligi psixologik xizmatlar faoliyati samaradorligining past darajada qolishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Hammamizga ma’lumki, talabalar psixologiyasining asosiy xususiyatlari tezkorlik yoki shoshqaloqlik bilan ma’lum bir vaziyatda fikrlamay, sabrsizlik bilan tezda qaror qabul qilish, harakat qilish holatlari ko‘proq sezilmoqda. Shu sababli talaba yoshlarimiz ko‘pincha ichki bosim, stress, yoki vaqtincha hissiyotlar ta’sirida qolib ketishi hammamizga ma’lum. Talaba yoshlar tezkorlik bilan harakat qilishi bir tomonlama yaxshi baholanadi, ikkinchi tomondan chuqur fikrlash va diqqatni jamlash qobiliyatini susaytirishini ko‘ramiz. Talaba yoshlar ijtimoiy muhitdagi turli xil munosabatlariga e’tibor beradigan bo‘lsak imtihonlar,

tanlovlar, ijtimoiy tarmoqlardagi bosim, muvaffaqiyatga erishish istagi barchasi talabalarda tushkunlik (depressiya), hadiksirash, ikkilanish yoki qo‘rquvni, o‘ziga ishonchning yo‘qligi, o‘ziga past baho berishi kabi psixologik to‘siqlarni ortirib ham boradi. Bundan tashqari talaba yoshlar raqamli muhitga bog‘liq bo‘lgan “internet” hayotning bir qismiga aylangan. Ba’zi talabalar o‘zlarini faqat “onlayn obraz” orqali qabul qiladi. Bu esa shaxsiy qadriyatlar va real hayotdagi munosabatlariga ta’sirini ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonlarida talaba shaxsi erkin fikrlashga intiluvchi, turli qarashlarni qabul qiluvchi va yondashuvlarini o‘zgartira oladi. Talaba yoshlar oliy ta’lim tizimiga kelajadagi maqsadlarini shakllantirib boradi. Bu jarayon talabalarning ilm olish, shaxsiyat rivojlanishi va ijtimoiy muhitga moslashishini ta’minlaydi.

Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarni ma’naviy va psixoemotsional barqarorlikka ega bo‘lishga yordam berish, ularning muammolarini hal qilish va ta’lim jarayonida yuqori natijalarga erishish uchun psixologik xizmatlar muhim rol o‘ynaydi. Oliy ta’limda talabalarga psixologik xizmat ko‘rsatish, bu oliy o‘quv yurtlarida talabalarning psixoemotsional holatini yaxshilash, ularning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida ko‘p jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta’limda tahsil olayotgan talaba yoshlarda mavjud muammolarga psixologik amaliy yordam berishimiz kerak bo‘ladi. Talabalarda stress, qiynalish, depressiya, qarshilik yoki ijtimoiy muammolar kabi holatlar tez-tez uchrab turmoqda. Ammo, ta’lim jarayonida talaba yoshlar psixolog mutaxassislarga borib maslaxat olishlari faol deb ayta olmaymiz.

Talabalar uchun ta’lim jarayonining murakkab bo‘lishi mumkin, masalan, ta’lim tizimidagi stresslar, vazifalarni bajarish yoki imtihonlarga tayyorgarlik. Psixologlar bu jarayonda stressni boshqarish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va motivatsiyani oshirishga yordam beradilar. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarga o‘quv jarayonlarning o‘zida psixologik ko‘mak berishimiz lozim. Oliy ta’limda faoliyat kshrsatayotgan psixologlarni talabalar bilan ishlash o‘quv dasturlari, psixoprofilaktik ishlar rejasi, psixodiagnostik va psixokorreksiya ishlarni tashkil etishning yangicha yondashuvlari amaliyotga tadbiq etishda talab qilinadi. Jumladan: talaba o‘zini-o‘zi rivojlantirishi va ijtimoiylashuvini kuchaytirishga e’tibor qaratishi lozim. Bunda talabalarga o‘z shaxsiy maqsadlari, qiziqishlari va iqtidorlarini aniqlashga yordam berish, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga oid psixologik o‘quv dasturlari ishlab chiqish

kerak bo‘ladi. Talaba yoshlar kasbiy rivojlanishi uchun fanlararo integratsiyani o‘rganib borib maqsadga muvofiqdir. Talaba yoshlar 2-3 bosqichlarga kelganda yangi ijtimoiy muhitga adaptatsiya qilish, kasbiy maqsadlarini shakllantirish va rejalar tuzishga odatlanishi lozim bo‘ladi. Shu sababli ham psixologik treninglar va seminarlarni amaliyotga joriy etilishi talaba yoshlarning o‘quv faolligini oshiradi. Talabalar uchun turli psixologik treninglar, seminarlar va psixokorreksiya mashg‘ulotlarini o‘tkazish, ularning kommunikativ va liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirib boradi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmatlar ko‘rsatish uchun maxsus oliy toifali psixologlarni ham jalb qilinishi maqsadga muvofiqdir. Ular talabalar bilan shaxsiy suhbatlar o‘tkazish, testlar va anketalar orqali ularning psixologik holatini baholash va yangi ko‘nikmalarni o‘rganish uchun treninglar olib borishga yordam berishadi. Bu sohada psixologik xizmatlarning samaradorligi oliy ta’lim tizimining sifatini oshirish va talabalarning umumiy farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Oliy ta’limning sifati va samaradorligining psixologiyasi, ta’lim jarayonida talabalarning psixoemotsional holatlari, motivatsiyalari, xulq-atvorlari va psixologik qobiliyatlari bilan ham bog‘liq. Oliy ta’limda psixologik xizmat ko‘rsatishni asosiy vazifalaridan biri psixologik qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish va ta’limning sifati-samaradorligini oshirishga qaratilgan. Oliy ta’lim muassasalarida psixologik qo‘llab-quvvatlashning o‘rni beqiyosdir. Talabalarning yoshlarga xos psixoemotsional xususiyatlari, o‘qishga bo‘lgan munosabatlari, muammolarni hal qilish qobiliyatlari, shoshilish va qaysi yo‘nalishda kamchiliklari borligi har bir talabaning ta’lim jarayonidagi natijasini belgilaydi. Psixologik xizmatlar talabalarga o‘zlarini tanib olish, stressni boshqarish va o‘zlari uchun maqsadlar qo‘yishda yordam beradi, strategik maqsadlar sari xatti-harakatlarini boshqarish, o‘z-o‘zini baholashiga amaliy yordam bergan bo‘lamiz.

Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, Oliy ta’limning sifati va samaradorligi talabalarning psixologik holatlari, motivatsiyalari, xulq-atvorlari va shaxsiy rivojlanish holatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ta’limda psixologik yordamni qo‘shish, talabalarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash oliy ta’limning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ta’lim muassasalarida psixologik xizmatlarning integratsiya qilinishi, talaba va

o‘qituvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga, shuningdek, ta’limning sifatini yanada ko‘tarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T., 2017.

3. Абрамова Г.С. Практическая психология. Учебник для студентов вузов. 2001г. 480 с

4. Тутушкина М.К. Практическая психология: Учебник: Санкт-Петербург.2001г